

№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>YANGI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalashning Moliyaviy Zarurligi va Ahamiyatini Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	3
2.	<i>PRIMENENIE MCFO 17 V STRAHOVAY SISTEME UZBEKİSTANA: PERСПЕКТИVY VNEDRENIЯ I POTEНCIALNыE PROBLEMY. ANALIZ REZERBOV I ZAKONODATEЛЬNыX BAPЬEROV Bаратова Динора Алишеровна</i>	6
3.	<i>SUG'URTA POLISINI TANLASHDAGI MUAMMO VA AFZALLIKLAR Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	10
4.	<i>O'ZBEKİSTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	13
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH Umarova Gulnora Akromovna</i>	16
6.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOMOBIL TRANSPORT SUG'URTASINI TAKOMILLASHTIRISH Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	18
7.	<i>O'ZBEKİSTONDA AVTOTRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASINING O'RNI Yakubova Nargiz Tursunbayevna, Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	20
8.	<i>O'ZBEKİSTONDA SUG'URTA TIZIMI VA UNDAGI XAVFLAR Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi, Akbaraliyeva Diyora</i>	22
9.	<i>PERСПЕКТИVY I BAPЬERY RAZVITIЯ ISLAMSKOGO STRAHOVANIЯ (TAKAFUL) V UZBEKİSTANE Myradova Dilgora Abdusaliyimovna</i>	26
10.	<i>YASHIL SUG'URTA TURLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI: ILMİY-NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV Erkaboev Yorbek Boirbekovich</i>	31
11.	<i>MILLIY SUG'URTA BOZORIDA INFORMATSION RISKLARNI SUG'URTALASHNI TAKOMILLASHTIRISH Xolbaev Azamat Yuldashevich</i>	34
12.	<i>PREIMUЩESTVA STRAHOVANIE I EGO ROL' V EKONOMIKE Умарова Хуршида Олимжоновна</i>	38
13.	<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASH: HOMİYLIK MABLAG'LAG'LARIDAN FOYDALANISH Dildora Bohodirovna Abdusattarovna</i>	42
14.	<i>SUVEREN KREDIT REYTING AGENTLIKLARINING BAHOLASH METODOLOGIYASIDAGI KAMCHILIKLARI TAHЛИI Tog'auniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	45
15.	<i>ZELЁNIE OBLIGACII I KREDITY: NOVYYI VEKTOR USTOЙЧIVOGO PОСTA UZBEKİSTANA Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи, Каримов Комилжон Хамидович</i>	48
16.	<i>ZELENAЯ EКОНОМИКА UZBEKİSTANA: ПУТЬ K USTOЙЧIVOMU RAZVITIЮ CТРАНЫ Гульмухамедова Дилбар Бахтиер кизи</i>	51

“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash markazi rahbari, dots.).
10. Quldashev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasni mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasni professori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasni professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasni dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasni dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasni dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTONDA "YASHIL SUG'URTA" MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MASALALARI

Xasanov Farrux Ravshanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: f.xasanov@bk.ru

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss3/290

Annotatsiya: Mazkur maqoladagi yashil sug'urtaning ahamiyati, dolzarbli ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda yashil sug'urta tizimini joriy etish borasida mavjид muammolar o'r ganligan, yashil sug'urta tizimini zamonaviy xalqaro mezonlar asosida shakllantirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik risklar, ekologik audit, yashil sug'urta, sug'urta tashkilotlari.

Abstract: The article examines the importance and relevance of green insurance. The problems of implementing a green insurance system in Uzbekistan are studied, and proposals and recommendations for developing a green insurance system based on modern international criteria are formulated.

Keywords: ecology, environmental risks, environmental audit, green insurance, insurance organizations.

Абстрактный: В статье рассмотрены важность и актуальность зеленого страхования. Изучены проблемы внедрения системы зеленого страхования в Узбекистане, разработаны предложения и рекомендации по формированию системы зеленого страхования на основе современных международных критерий.

Ключевые слова: экология, экологические риски, экологический аудит, зеленное страхование, страховые организации.

Kirish (Introduction/Введение)

Bugungi kunda global miqyosda iqlim o'zgarishi, ekologik muvozanatning buzilishi va tabiiy ofatlarining ko'payishi insoniyat oldida dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni yuzaga keltirmoqda. Ayni paytda, barqaror rivojlanish tamoyillarini iqtisodiyotning barcha sohalarida ta'biq etish zaruriyati ortib bormoqda. Ayniqsa, moliyaviy xizmatlar sohasida ekologik xavflarni boshqarish, ularni minimallashtirish va kompensatsiya mexanizmlarini yaratish zamonaviy yondashuvlar qatorida muhim o'r'in egallamoqda.

Shu nuqtai nazaridan qaralganda, "Yashil sug'urta" (green insurance) tushunchasi jahon sug'urta bozorida ekologik tavakkalchiliklarni sug'ortalash, iqlim xavflariga qarshi iqtisodiy himoya choralarini ko'rish va aholining ekologik ongini oshirish vositasi sifatida shakllanmoqda. Bu sug'urta turi nafaqat atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash, balki ekologik me'yordiliga mos faoliyat yurituvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni rag'battantirish, ular od izini kamaytirish va yashil texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlashga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ekologik muammolarning ortib borayotgani, xususan, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklar, suv tanqisligi, yelrarning degradatsiyasi va atmosferaning iflosanishi yashil iqtisodiyotga o'tish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqmoqda. Mamlakatda sug'urta bozorini isloh qilish va diversifikasiya qilish jarayonida yashil sug'urtaning joriy etilishi nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki moliyaviy tizimning iqlimga moslashuvchanligini oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil sug'urta tizimini shakllantirish va rivojlanish zaruriyati, uning institutsional, iqtisodiy va huquqiy asoslari, xalqaro tajriba va milliy sharoitda qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mayjud muammolar va to'siqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Yashil sug'urta bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar oxirgi yillarda barqaror rivojlanish, ekologik risklar va iqlim o'zgarishlariga qarshi moliyaviy moslashuv masalalarining dolzarblashuvi tufayli sezilarlar daражада kengaygan. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar asosan ekologik

risklarni baholash, yashil moliyalashtirishning sug'urta sohasi bilan integratsiyasi, parametrik sug'urta va ESG (Environmental Social Governance) mezonlari asosida sug'urta mahsulotlarini shakllantirish yo'nalishlariga qaratilgan.

Clements J., & Kreft S. "Climate Risk Insurance: Closing the Protection Gap" tadqiqotida iqlim o'zgarishi xavfini sug'urta orqali boshqarish va himoya bo'shiqliklarini to'ldirish mexanizmi sifatida yashil sug'urtaning dolzarbli ko'rsatib o'tilgan [6].

"Swiss Re Institute"ning "The economics of climate change: no action not an option." hisobotida sug'urta bozorining iqlim xavflari oldidagi zaiflik darajasi, yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish va yashil investitsiyalarning sug'urta sektori bilan aloqasi tahlil qilingan [7].

Sobol O.S. "Zelennoe" straxovanie: uchet ekologicheskix faktorov v deyatelnosti rossiyskix straxovshikov" maqolasida Rossiya Federatsiyasida yashil sug'urtaning holati va istiqbollari tadqiq qilingan [4].

Rustam Azimov va Mirodil Mirsadikovning "Green Insurance in Uzbekistan – Current State, Challenges, and Development Prospects: A Theoretical Analysis" maqolasida O'zbekistonda yashil sug'urta rivojlanishi zarurligi, asosiy to'siqlar va echimlar belgilab berilgan [3].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalilanigan usullar (Methods/Методы). Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ekspert baholash, umumlashtirish, taqqoslash, tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Iqlim o'zgarishi global iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Atrof-muhit muhofazasi va ekologik barqarorlik masalalari bugungi kunda global miqyosda dolzarb bo'lib, ushbu yo'nalishda samarali iqtisodiy vositalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday vositalardan biri bu yashil sug'urta hisoblanadi. Yashil sug'urta tizimi orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yuzaga keluvchi ekologik xatarlarni moliyaviy boshqarish, tabiatni muhofaza qilish bilan uyg'unlashgan iqtisodiy faoliyatni rag'battantirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga erishiladi. Bunday sug'urta mahsulotlari iqlim o'zgarishi sababli yuzaga keladigan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishda yordam beradi.

"Yashil sug'urta" (Green insurance) – bu tabiiy va antropogen omillardan kelib chiqadigan ekologik xatarlar, iqlim o'zgarishi, tabiiy

ofatlar, ifloslanish, karbon chiqindilari va boshqa shunga o'xshash holatlар natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishlarni moliyaviy yo'l bilan bartaraf etishga qaratilgan sug'urta mexanizmi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi ekologik tavakkalchiliklarni qayta taqsimlash, jamiyatni va biznes subyektlarini tabiiy xatarlardan himoya qilish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni moliyaviy jihatdan ta'minlashdir.

Yashil sug'urtaning nazariy asoslari, avvalo, ekologik iqtisodiyot va xavfni boshqarish nazariyalariga tayanadi. Ekologik iqtisodiyotga ko'ra, inson faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslarning cheklanganligi, ularni muhofaza qilishni strategik vazifaga aylantirgan. Bu borada yashil sug'urta ekologik mas'uliyatni kuchaytiruvchi va xavfni xususiylashtiruvchi moliyaviy vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Xavfni boshqarish nazariyasi nuqtai nazaridan esa yashil sug'urta tavakkalchiliklarni faqat qabul qilish emas, balki bozor mexanizmlari orqali qayta taqsimlashga xizmat qiladi. Ya'ni, sug'urta kompaniyalar orqali xatarlar markazlashtiriladi va zarar kelib chiqqan holda, sug'urta to'lovlari orqali iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Bugungi kunda yashil sug'urta xalqaro moliyaviy bozorlarda ESG (Environmental, Social, Governance – ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv) standartlariga mos ravishda ishlab chiqilmoqda. Bu degani, sug'urta faoliyati nafaqat moliyaviy manfaatdorlikka, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi ijtimoiy himoyasi va yaxshi boshqaruv prinsiplari asosida yuritilishi kerak.

Yashil sug'urtaning ilmiy mohiyati quyidagi asosiy tamoyillarda aks etadi:

1. Ekologik risklarni boshqarish – ekologik halokatlar, atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning yemirilishi kabi jarayonlar bilan bog'liq moliyaviy zararlarni oldindan baholash va sug'urta mexanizmlari orqali ularni qoplash tizimini shakllantirish.
2. Ekologik-investitsion muhitni yaxshilash – yashil texnologiyalarni joriy etishga oid loyihalarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash orqali yanada jozibador qilish.
3. Atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatini qo'llab-quvvatlash – davlat tomonidan ishlab chiqilgan ekologik normalara va standartlarga mos faoliyat yurituvchi subyektlarni rag'batlantirish.
4. Barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish – iqtisodiyotning ekologik xavfsiz va barqaror shakllanishiga xizmat qiluvchi moliyaviy instrument sifatida ishlatilishi.

Bugungi kunda xalqaro amaliyotda yashil sug'urtaning quyidagi asosiy turlari qo'llanilib kelinmoqda:

- Ekologik mas'uliyat sug'urtasi (Environmental Liability Insurance). Korxonaning faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun uchinchi shaxslarga javobgarlikni qoplashga qaratilgan sug'urta turi. Bu, ayniqsa, sanoat va energetika sohalarida keng qo'llaniladi.

• Iqlim xavflari sug'urtasi (Climate Risk Insurance). Iqlim o'zgarishlari oqibatida yuzaga keladigan tabiiy ofatlar - qurg'oqchilik, toshqin, dovul, o'rmon yong'inlari kabi holatlardan ko'rilgan zararlarni moliyaviy jihatdan qoplashga xizmat qiladi. Bu sug'urta turi qishloq xo'jaligi va infratuzilma tarmoqlari uchun muhim hisoblanadi.

• Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sug'urtash. Quyosh, shamol, bioenergiya kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan loyihalarning qurilish, foydalananish va ekspluatatsiya jarayonlarida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni qoplashga mo'ljallangan sug'urta shakli.

• Qishloq xo'jaligida ekologik sug'urta. Organik dehqonchilik, agrobiodiversitet va ekologik toza mahsulot yetishtirish faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni qamrab oladi. U tuproq, suv va atmosfera ifloslanishiga bog'liq risklarni moliyaviy boshqarishda qo'llaniladi.

• Transport ekologik tavakkalchiliklarni sug'urtash. Transport vositalari tomonidan atrof-muhitga salbiy ta'sir, xususan, zararli gazlar chiqarilishi, yonilg'i to'kilishi, avariya holatlari natijasida yuzaga keladigan ekologik zararlarga nisbatan sug'urta himoyasini ta'minlaydi.

• Resilience sug'urtasi (qarshilikni oshirish sug'urtasi). Iqlim o'zgarishlari va ekologik ofatlar bilan bog'liq tavakkalchiliklarga nisbatan jamoalarning va infratuzilmaning chidamliligini oshirishga qaratilgan. Bu turdag'i sug'urta tizimlari suv resurslarini boshqarish, infratuzilmani mustahkamlash kabi loyihalarni qamrab oladi.

"Yashil sug'urta" ekologik barqarorlikni ta'minlovchi mexanizmlardan biri bo'lib, bir tomonidan ishlab chiqaruvchilarini mas'uliyati faoliyat yuritishga undasa, ikkinchi tomondan, moliyaviy

tizim orqali ekologik zararlarning oqibatlarini yumshatadi. Jahan tajribasi shuni ko'rsatadi, bunday sug'urta turlari rivojlangan mamlakatlarda nafaqat iqlim xavfini boshqarish, balki yashil loyihalarni moliyalashtirishda ham keng qo'llanilmoqda.

Yevropa Ittifoqi va AQShda yashil sug'urta bozorining rivojlanishi yuqori darajaga yetgan. Yevropa davlatlari ekologik xavf-xatarlarga qarshi sug'urta tizimlarini joriy etish uchun innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishmoqda. Masalan, Germaniya, Fransiya va Niderlandiya kabi mamlakatlar yashil sug'urta tizimlari orqali iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda katta yutuqlarga erishgan. AQShda esa yashil sug'urta mahsulotlari orqali ekologik xavflarga qarshi turishning samarali yo'llari ishlab chiqilgan.

Xitoy va Hindiston ekologik sug'urta tizimini o'z iqtisodiyotlariga muvaffaqiyatli joriy etgan davlatlar sifatida e'tirof etilmoqda. Xitoyda, ayniqsa, ekologik risklarni sug'urtash sohasida yuqori darajadagi siyosiy qo'llab-quvvatlash mavjud. Hindiston esa, yashil sug'urta mahsulotlari orqali tabiiy ofatlarning oldini olish va iqtisodiy barqarorlikni saqlashni maqsad qilgan.

Barcha davlatlar singari O'zbekistonda yashil sug'urta tizimimini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Ekologik muammolar tobra kuchayib borayotgan sharoitda O'zbekiston ham barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot konsepsiyalarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, yashil moliya vositalari, xususan, yashil sug'urta mexanizmlarini iqtisodiy jarayonlarga joriy etish muhim vazifalardan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son farmoniga muvofiq 2025 yil 1 noyabrga qadar Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan xo'jalik faoliyatini yurituvchi korxona va tashkilotlar tomonidan yetkazilgan ekologik zararlarni majburiy sug'urtash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha qonun loyihasi ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 1 martdag'i "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlanishining kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son qaroriga muvofiq Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga "Yashil sug'urta" (Green insurance) mahsulotlarini joriy etish bo'yicha taklif ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

Hozirgi kunda yashil sug'urta mahsulotlarning bozori O'zbekistonda hali shakllanish jarayonida. Respublika hukumati tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashish va yashil iqtisodiyotni rivojlanishiga qaratilgan davlat dasturlari O'zbekistonda yashil sug'urtaning rivojlanishiga turtki berishi mumkin.

O'zbekistonda yashil sug'urta tizimini rivojlanishda bir nechta muammolar mavjud, bular quyidagilar:

1. Yashil sug'urta mahsulotlari qarshi loyihalar amalga oshirilmoqda.
2. Huquqiy va moliyaviy mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan.
3. Yashil sug'urta mahsulotlari uchun maxsus moliyaviy mexanizmlar mavjud emas.
4. Yashil sug'urta tizimiga mamlakat sug'urta tashkilotlari tayor emas.

O'zbekistonda yashil sug'urta tizimini zamonaviy xalqaro mezonlar asosida shakllantirish, ekologik xavflarga nisbatan bardoshliliginini oshirish, aholining ekologik ongini kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash borasida quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

1. Huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish. Yashil sug'urta tizimini institutsional asosda rivojlanish uchun quyidagi normativ-huquqiy chora-tadbirlar zarur:

- ekologik xavflarni sug'urtash bo'yicha alohida qonun ishlab chiqilishi lozim. Ushbu qonun orqali yashil sug'urta tushunchasi, ekologik risklarning turlari, sug'urta subyektlari, monitoring va audit mexanizmlari aniqlashtiriladi;

- O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuniga iqlim xavflarini sug'urtash bo'yicha qo'shimchalar kiritilib, yashil sug'urta mahsulotlarini yaratish uchun me'yoriy asosni mustahkamlash;

- ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlariga mos faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlariga soliq, litsenziyalash va reyting bo'yicha imtiyozlar berish tizimi joriy etish.

2. Mahsulotlar turlari va diversifikatsiyasini kengaytirish. Yashil sug'urta faqatgina ekologik risklarni sug'urtalash emas, balki ildim bilan bog'liq iqtisodiy tavakkalchiliklarni boshqarish sifatida ham xizmat qilishi kerak. Shu munosabat bilan:

- parametrik (indeksli) sug'urta mahsulotlari: ob-havo ko'rsatkichlariga (masalan, yog'ingarchilik miqdori, harorat, shamol tezligi) asoslangan sug'urta mahsulotlari orqali tezkor va shaffof to'lov tizimini yaratish;

- tarmoqlar kesimida ekologik sug'urta turlarini joriy etish, bular:

- qishloq xo'jaligidagi – qurg'oqchilik, do'l, shudring, biologik zarar yetkazuvchilar;

- qurilishda – ekologik talablarga zid harakatlar natijasida yuzaga kelgan zararlar;

- energetik va sanoatda – uglerod chiqindilarining haddan tashqari ko'payishi, chiqindilarni boshqarishda xatoliklar;

- transport sohasida – elektromobillar, velosipedlar, ekologik yoqilg'i iste'mol qiluvchi vosomalalar uchun alohida tariflar joriy etish.

- aholiga mo'ljallangan yashil sug'urta paketlari: ekologik faol hayot tarzini qo'llab-quvvatlovchi, energiyani tejash, chiqindilarni qayta ishslash yoki kam suv iste'mol qilishni rag'batlantiruvchi sug'urta mahsulotlari ishlab chiqilishi zarur.

3. Moliyaviy va institutsional mexanizmlarni kuchaytirish. Barqaror yashil sug'urta tizimini shakllantirishda quyidagi moliyaviy barqarorlik va institutsional omillarni joriy etish muhim sanaladi:

- davlat tomonidan subsidiyalash tizimi joriy etilishi: fermer xo'jaliklari, startaplar va innovatsion kompaniyalar uchun yashil sug'urtaga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida sug'urta mukofotlarining bir qismini davlat qoplab berish;

- yashil sug'urta jamg'armasi tashkil etish orqali xavfli hududlarda yashovchi aholiga, barqaror rivojanishga qaratilgan loyihalarga sug'urta himoyasini ko'rsatish;

- Green Bonds (yashil obligatsiyalar) orqali sug'urta kompaniyalarining ekologik faoliyatlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash.

4. Raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Yashil sug'urta bozorida texnologik yangiliklardan samarali foydalanish tizimni zamonaqylashtirish, buning uchun:

- sun'iy yo'ldosh va dron texnologiyalari yordamida iqlim xavflarini masofadan aniqlash, baholash va real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini yaratish;

- blokcheyn texnologiyasi asosida shartnomalar, to'lovlar va sug'urta hodisalarini avtomatik boshqarish, shaffoflikni oshirish va korrupsiya xavfini kamaytirish;

- mobil ilovalar yordamida mijozlar sug'urta shartnomalarini tuzish, yaniglash, to'lov holatini nazorat qilish va ekologik bonus tizimidan foydalanish imkoniyatini yaratish.

5. Kadrlar salohiyati va ilmiy-analitik bazani joriy etish. Yashil sug'urta bozorining barqaror rivojanishi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida:

- oliv ta'lim muassasalarida "Yashil sug'urta va ekologik risklar" bo'yicha ixtisoslashgan kurs va magistratura dasturlarini yo'lga qo'yish.

- sug'urta tashkilotlari va ilmiy tadqiqot muassasalari o'tasida hamkorlikda ekologik xavflarni tahlil qilish va prognozlash bo'yicha ilmiy markazlar tashkil etilish;

- ilmiy-analitik faoliyatni kuchaytirish orqali sug'urta mahsulotlarining innovatsion model va algoritmlar asosida ishlab chiqilishi rag'batlantirish.

6. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvini keng yo'lga qo'yish. Bu yo'nalishda:

- UNDP, IFC, GCF kabi xalqaro moliyaviy institutlar bilan pilot loyihalarni amalga oshirish, texnik yordam va grantlar jaib qilish;

- sug'urta tashkilotlari faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlash.

Keltirilgan takliflar O'zbekistonning yashil sug'urta tizimini zamonaqylashtirishda shakllantirishga xizmat qiladi. Ular sug'urta bozorining ekologik xavflarga nisbatan bardoshlilagini oshirish, aholining ekologik ongini kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu yondashuvlar ESG tamoyillari asosida investitsions jozibadorlikni oshirish, xorijiy kapitalni jaib qilish va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish imkonini beradi.

Xulosa (Заключение/Conclusion)

O'zbekistonda yashil sug'urta tizimining shakllanishi va rivojanishi bugungi kun iqlim muammolari, ekologik xavflarning keskin ortib borishi, shuningdek, barqaror iqtisodiy taraqqiyot tamoyillarining kuchayib borayotgan sharoitida dolzarb masala sifatida maydonga chiqmoqda. Tadqiqot davomida yashil sug'urtaning ahamiyati nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda asosiy moliyaviy instrumentlardan biri ekani ilmiy asosda isbotlandi.

Yashil sug'urtani joriy etishdagi asosiy to'siqlar bu normativ-huquqiy asosning zaifligi, sug'urta kompaniyalarining ekologik risklarni baholash va boshqarish bo'yicha malaka va texnologiyalarga ega emasligi, aholi va tadbirkorlarning xabardorlik darajasining pastligi, shuningdek, davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining yo'qligidir. Bu muammolar sug'urta bozorining yashil transformatsiyasini sekinlashtirmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yashil sug'urta tizimini samarali shakllantirish uchun quyidagilar muhim omillar hisoblanadi:

- sohada puxta qonunchiliklarni yaratish;

- sug'urtalovchilar salohiyatini oshirish va ekologik risklarni model qilish bo'yicha texnologiyalarni joriy etish;

- axborot tizimlarini (GIS, meteorologik ma'lumotlar) takomillashtirish;

- davlat-xususiy sheriklik asosida subsidiyalar va moliyaviy rag'batlarni kengaytirish;

- fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari o'tasida yashil sug'urtaning afzalliklari haqida chuqur tushunchani shakllantirish.

Yuqoridaqilar asosida, yashil sug'urta O'zbekiston uchun nafaqat ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar va investitsiya yo'nalishlarini ochuvchi strategik yo'nalish e'tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar (References/Литература):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yiliда amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-16-son farmoni. <https://www.lex.uz/docs/7369703>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/6824178>
3. Rustam Azimov & Mirodil Mirsadikov. "Green Insurance in Uzbekistan – Current State, Challenges, and Development Prospects: A Theoretical Analysis". 8-th International Conference on Research in Business, Management and Finance. 16-18 may 2025. Rome, Italy.
4. Соболь О.С. "Зеленное" страхование: учет экологических факторов в деятельности российских страховщиков. Вектор юридической науки 8/2022.
5. Ермолаева А.С., Кулумбекова А.В. "Страхование экологических рисков ТЭК: опыт, проблемы и перспективы развития". Журнал "Страховое дело". 2021. № 1(334). С. 38-44.
6. Clements J., & Kreft S. "Climate Risk Insurance: Closing the Protection Gap". Munich Climate Insurance Initiative, 2018.
7. Swiss Re Institute. The economics of climate change: no action not an option. Zurich: Swiss Re, 2021. <https://www.swissre.com/institute>.
8. Corfee-Morlot J., et al. Towards a green investment policy framework: The case of low-carbon, climate-resilient infrastructure, OECD Environment Working Papers, 2012, no. 48. Available at: <https://clck.ru/YPwn>.
9. The Global Risks Report 2020 // World Economic Forum. <https://www.weforum.org/reports/the-global-risks-report-2020>
10. <https://napp.uz>.